

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING UMUMIY TAVSIFI

Quvondiqova Sohiba Orif qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti

Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788694>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy tomonidan yozilgan “Saddi Iskandariy” dostoni tahlil qilinadi. Asarning umumiy hajmi, tuzilishi, janr xususiyatlari hamda tarixiy va diniy manbalarga asoslangani ilmiy yondashuv asosida yoritilgan. Dostonning Qur’oni Karimdagagi Zulqarnayn haqidagi oyatlar bilan bog ‘liqligi, shuningdek, unda Iskandar obrazining badiiy-falsafiy talqini ochib beriladi. Asar orqali adolatli va ilmli rahbar timsoli yaratilib, o‘zbek epik an’analariida yangi bosqich boshlab berilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, dostondagi g‘oyaviy mazmunning bugungi davr uchun ham dolzarbliji asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Saddi Iskandariy, Xamsa, Zulqarnayn, Iskandar, tarixiylik, diniy motivlar, epik doston, adolatli hukmdor, Qur’on, o‘zbek adabiyoti, mutaqorib bahri.

Аннотация. В данной статье анализируется эпическая поэма «Садди Искандарий» Алишера Навои. На основе научного подхода освещаются общий объем, структура, жанровые особенности, а также то, что произведение основано на исторических и религиозных источниках. Раскрывается связь эпоса со стихами о Зулькарнаине в Священном Коране, а также художественно-философская интерпретация образа Александра в нем. Показано, что произведение создает образ справедливого и знающего лидера и начинает новый этап в узбекской эпической традиции. Также обосновывается актуальность идеиного содержания эпоса для сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Алишер Навои, Садди Искандарий, Хамса, Зулькарнаин, Александр, историчность, религиозные мотивы, эпическая поэма, справедливый правитель, Коран, узбекская литература, море мутакарибов.

Abstract. This article analyzes the epic poem "Saddi Iskandariy" written by Alisher Navoi. The overall volume, structure, genre features, and the fact that the work is based on historical and religious sources are covered on the basis of a scientific approach. The connection of the epic with the verses about Zulqarnain in the Holy Quran, as well as the artistic and philosophical interpretation of the image of Alexander in it, are revealed. It is shown that the work creates the image of a just and knowledgeable leader and begins a new stage in the Uzbek epic tradition. The relevance of the ideological content of the epic for today is also substantiated.

Keywords: Alisher Navoi, Saddi Iskandariy, Hamsa, Zulqarnain, Alexander, historicity, religious motifs, epic poem, just ruler, Quran, Uzbek literature, sea of mutaqarib.

KIRISH

Alisher Navoiy ijodining yuksak cho‘qqilaridan biri — bu uning “Xamsa” turkumidagi besh dostoni hisoblanadi. “Xamsa” arabcha so‘z bo‘lib, “besh” degan ma’noni bildiradi. Bu turkumda Navoiy quyidagi asarlarni yaratgan: “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai Sayyor” va “Saddi Iskandariy”. U ushbu besh dostonni 1483–1485-yillar

oralig‘ida, atigi ikki yilu sakkiz oyda yozib tugatgan. Bu juda qisqa muddat bo‘lishiga qaramay, dostonlarning barchasi badiiy, falsafiy va g‘oyaviy jihatdan yuksak darajada yaratilgan.

Navoiy bu ishga kirishar ekan, o‘zidan oldin bu yo‘lda qalam tebratgan Nizomiy Ganjaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ijodkorlarning “Xamsa”siga ergashgan. Lekin Navoiy bu yo‘ldagi an‘anaviy tartibni saqlagan holda, har bir dostonni o‘z milliy ruhiyati, o‘zbek tilining imkoniyatlari va Sharq falsafasi bilan uyg‘unlashtirdi. U “Xamsa” yozish orqali turkiy adabiyotda bu janrda ijod qilish mumkinligini isbotladi, shu tariqa o‘zbek she’riyatida yangi bosqichga asos soldi.

“Saddi Iskandariy” Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumidagi beshinchli va eng yirik dostoni hisoblanadi. Ushbu asar Navoiy ijodining pishiq davrida, 1485-yilda yozilgan bo‘lib, 89 bob, 7215 baytdan iborat. Navoiy ushbu asarni yaratishda tarixiy haqiqatga suyanishni o‘ziga asosiy tamoyil qilib oladi. Bu haqida u dostonning muqaddimasida ochiq yozadi. U Iskandar obrazini Qur’oni Karimdagagi Zulqarnayn haqidagi oyatlar bilan uyg‘unlashtirib, tarixiy manbalar — ayniqsa, Yunon va Eron tarixchilarining yozuvlariga tayangan holda tasvirlaydi.

Navoiy dostonni yozishda boshqa xamsanavislari, xususan, Nizomiy va Jomiyning bu boradagi asarlarini chuqur o‘rgangan bo‘lsa-da, o‘z yo‘lini tanlagan. Chunonchi, Nizomiyda Iskandar obrazida ko‘proq afsonaviy qahramonlik kuchli bo‘lsa, Navoiy Iskandarning ilmdan zavqlanuvchi, adolatni targ‘ib qiluvchi, xalq dardi bilan yashovchi ideal hukmdor sifatidagi qiyofasini yaratadi.

Asarning nomi — “Saddi Iskandariy” — ham beziz emas. Bu Qur’ondagi Zulqarnaynning ya’juj-ma’juj qabilalariga qarshi devor (“sadd”) qurish voqeasiga ishora bo‘lib, dostonning mazmuniy asosini belgilaydi. Navoiy bu devor qurilishi orqali ham Iskandarning nafaqat jismoniy qudratini, balki insoniyatga tinchlik va osoyishtalik beruvchi dono rahbar sifatidagi fazilatlarini ko‘rsatadi. Dostonning yaratilish jarayoni Navoiyning yuksak badiiy salohiyati, tarixiy tafakkuri va diniy bilimlarining uyg‘un natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihatlar sababli “Saddi Iskandariy” o‘zbek adabiyotida tarixiy-falsafiy doston janrining mukammal namunasi bo‘lib qoldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni o‘zbek adabiyotida tarixiy-falsafiy epikaning yorqin namunasi sanaladi. Asarda Iskandar shaxsining bolaligidan to vafotigacha bo‘lgan hayot yo‘li bayon etiladi. Navoiy bu dostonni yaratishda boshqa “Xamsa” dostonlariga qaraganda tarixiy manbalarga ko‘proq suyanadi. U o‘z asarining boshidayoq bu yo‘ldan borganini ochiq bayon qilib, asar Qur’oni Karimda keltirilgan Zulqarnayn haqidagi oyatlar va tarixiy shaxs — Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) hayotiga tayangan holda yaratilganini ko‘rsatadi. Dostonning aruz vaznining mutaqorib bahrida yozilgani ham Navoiyning she’riy mahoratini yana bir bor tasdiqlaydi. Asarda ifoda vositalari, ayniqsa tashbehlar, sifatlashlar, rivoyat va hikmatlar orqali Iskandarning fazilatları yorqin tasvirlangan. Doston 89 bob, 7215 baytdan iborat bo‘lib, Navoiy ijodidagi hajman eng katta asarlardan biridir. Dostonda Iskandarning jahongirlik yurishlari, shaharlar qurishi, adolat bilan hukmonlik qilishi orqali ideal shoh obrazi chiziladi. Har bir yurishidan oldin u ustozlar bilan maslahat qiladi, har bir g‘alabasidan so‘ng esa yurtni obod etishga harakat qiladi. Bu esa Iskandarning o‘z

manfaatidan ko‘ra, xalq farovonligi va tinchligini ustun qo‘ygan hukmdor sifatida gavdalanishiga xizmat qiladi.

Asarning yana bir muhim jihatni — undagi badiiy obrazlar va ularning ramziy ma’nosidir. Masalan, shisha sandiqda dengiz ostiga tushish — bu oddiy sarguzasht emas, balki ilmlarni egallash, noma’lum olamni kashf qilishga bo‘lgan intilish timsolidir. Iskandarning oxirgi maktubi esa insoniy kamtarlik, hayotiy haqiqat, onaga bo‘lgan hurmat va bu dunyo o‘tkinchilagini eslatuvchi falsafiy yakun bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Navoiy asarni yaratishda Sharq falsafasi, islomiy qadriyatlar, tarixiy ma’lumotlar va xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘rganganini ko‘rish mumkin. Bularning barchasi “Saddi Iskandariy”ni o‘zbek adabiyotidagi o‘zgacha ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy-badiiy yodgorlikka aylantiradi. Shu bois ham bu doston adabiyotshunoslar tomonidan ko‘p bora o‘rganilgan va ulug‘ adibning eng yirik epik asari sifatida baholangan [Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.].

“Saddi Iskandariy” dostonidagi til soddaligi, mazmun chuqurligi, obrazlar boyligi va axloqiy g‘oyalarning ustuvorligi asarni har bir o‘quvchi uchun qadrli qiladi. Bu asar faqat adabiy emas, balki ma’naviy-tarbiyaviy jihatdan ham muhim o‘rin tutadi. Chunki unda ilm,adolat, sadoqat, vatanparvarlik, kamtarlik kabi hayotiy qadriyatlar ilgari surilgan [O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Saddi Iskandariy” maqolasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2002.].

MUHOKAMA

“Saddi Iskandariy” dostoni Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda Iskandarning bolaligidan to vafotigacha bo‘lgan hayot yo‘li keng tasvirlanadi. Navoiy bu asarda Iskandarning harbiy yurishlari, podsholik faoliyati va insoniy fazilatlarini bir butun tarzda ko‘rsatishga harakat qilgan. Eng avvalo, bu doston Iskandarning bir sarkarda sifatida emas, balki dono,adolatli, ilmparvar va fazilatli shaxs sifatida gavdalanishiga urg‘u beradi. Asarning muhim jihatni shundaki, unda Iskandar saltanat va boylikdan ko‘ra ilmga, donolikka,adolatga ustuvor ahamiyat beradi. U qayerga bormasin, avvalo u yerni obod qiladi, odamlarga mehr-muruvvat ko‘rsatadi. Doro bilan bo‘lgan urushda ham Iskandar nafaqat dushmanini mag‘lub etadi, balki uning vasiyatlariga sadoqat bilan amal qilib, o‘zining oliyanob fe’lini namoyon etadi. Bunday fazilatlar o‘quvchida katta taassurot qoldiradi va Navoiy yaratgan obraz orqali haqiqiy hukmdor qanday bo‘lishi kerakligi haqida tasavvur paydo qiladi. Dostonda tasvirlangan sehrli voqealar, masalan, shisha sandiqda dengizga tushish yoki Kashmirda sehr-jodu orqali himoyalangan shaharni topish — bular badiiy tasvirlar orqali Iskandarning faqat qudratli emas, balki bilimli, tafakkurli va hikmatli inson ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, dostonning eng yakuniy qismi — Iskandarning maktubi, undagi iqrori va yetti donishmandning onasiga ta’ziya yo‘llashi — bu dunyoning o‘tkinchiligi, shon-shuhrat ham bir kun tugashi, eng muhim boylik esa mehr, vatan va ona degan tuyg‘ular ekanini anglatadi.

“Saddi Iskandariy” faqat tarixiy shaxs haqidagi doston emas, balki insoniylik, mehr, bilim,adolat va kamtarlik haqidagi ulkan asardir. Navoiy bu asar orqali Iskandarning fazilatlarini maqtash bilan birga, o‘quvchini chuqur hayotiy xulosalarga yetaklaydi. Doston oxirida Iskandarning bo‘sish qo‘l bilan vafot etgani, dunyodan hech narsa olib ketmaganini eslatish orqali

Navoiy dunyoviy orzular emas, ruhiy kamolot muhimligini alohida urg‘ulagan [Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021].

Shuningdek, bu doston orqali Navoiy sharqona dunyoqarashni, Qur’on asosidagi axloqiy qadriyatlarni badiiy obrazlar bilan boyitgan. Iskandarning ya’juj va ma’jujga qarshi “sadd” (devor) qurishi orqali u insoniyatga tinchlik, himoya vaadolat ramzini ham hadya qiladi. Bu esa Qur’oni Karimdagi Zulqarnayn haqidagi voqealar bilan uyg‘unlashgan holda asarni yanada chuqur ma’no bilan boyitadi [O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Saddi Iskandariy” maqolasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2002.].

XULOSA

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni — o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallagan, ma’naviy va axloqiy g‘oyalarga boy epik asardir. Ushbu doston orqali Navoiy nafaqat tarixiy voqealarni, balki insoniy fazilatlarni,adolat, ilm-fan, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni yuksak darajada ifodalagan. Asarda Iskandar obrazi bir vaqtning o‘zida sarkarda, hukmdor, olim va murabbiy sifatida tasvirlanib, o‘quvchiga namunali shaxs sifatida taqdim etiladi.

Dostondagi hikmatlar, badiiy tasvirlar va ramziy sahnalar o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. Ayniqsa, Iskandarning maktubi orqali berilgan falsafiy xulosa — bu dunyodagi har qanday shon-shuhrat va boylik vaqtinchalik, inson uchun eng buyuk qadriyat esa mehr, kamtarlik va ona siyimosini ulug‘lashdir — degan fikrni ilgari suradi. “Saddi Iskandariy” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asar sifatida yoshlarga ma’naviy saboq berishda, tarixiy ongni shakllantirishda va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu doston orqali Navoiy bizga shunchaki tarix emas, balki hayotga saboq, ruhga madad bo‘ladigan hikmatli badiiy meros qoldirgan.

REFERENCES

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
2. Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Milliy ensiklopediya nashriyoti, 2000–2005.
4. Qur’oni Karim. Kahf surasi, 83–98-oyatlar.
5. Karimov, A. Alisher Navoiy va islom manbalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.